

Hojiyeva Gulchehra Salimovna
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent.
gulchehrahojiyeva88@gmail.com

CHET TILINI O'QITISHDA WORDWALL PLATFORMASI ORQALI KREATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH (FRANSUZ TILIDAGI SAN'AT TERMINLARI MISOLIDA)

Ushbu maqolada mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tirborning so'nggi yillarda tobora ortib borayotganligi, bugungi kompyuter texnologiyalari asrida chet tillarini o'rganish borasidagi alohida yonlashuvlar va bu borada dunyo hamda mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, xorijiy tillarni onlayn ta'lim platformalari asosida o'rganish, xususan, Wordwall.net platformasi va uning nazariy hamda amaliy ahamiyati, shu nuqtai-nazardan, fransuz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talabalarda san'atga oid terminlar leksikasini Wordwall onlayn platformasi vositasida shakllantirish va rivojlantirishning samaradorligi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, fransuz tili, onlayn ta'lim texnologiyalari, onlayn ta'lim platformalari, raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, Wordwall.net.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЛАТФОРМЫ WORDWALL В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ТЕРМИНОВ ИСКУССТВА)

В данной статье рассматривается возрастающее в последние годы внимание к изучению иностранных языков в нашей стране, а также особые подходы к их изучению в эпоху современных компьютерных технологий. Освещаются научные исследования, проведённые зарубежными и отечественными учёными в данной области. Кроме того, анализируется процесс изучения иностранных языков на основе онлайн-образовательных платформ, в частности платформа Wordwall.net, её теоретическое и практическое значение. С этой точки зрения рассматривается эффективность формирования и развития лексики терминов, связанных с искусством, у студентов, изучающих французский язык как иностранный, с использованием онлайн-платформы Wordwall.

Ключевые слова: иностранный язык, французский язык, онлайн-образовательные технологии, онлайн-образовательные платформы, цифровые технологии, геймификация, Wordwall.net.

DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING THROUGH THE WORDWALL PLATFORM (ON THE EXAMPLE OF ART TERMINOLOGY)

This article discusses the growing attention to foreign language learning in our country in recent years, as well as specific approaches to learning foreign languages in the modern era of computer technologies. It also reviews scientific research conducted by both international and local scholars in this field. In addition, the paper examines the use of online educational platforms for foreign language learning, with particular focus on the Wordwall.net platform and its theoretical and practical significance. From this perspective, the study highlights the effectiveness of using the Wordwall online platform in developing and enhancing the vocabulary of art-related terms among students learning French as a foreign language.

Keywords: foreign language, French language, online learning technologies, online educational platforms, digital technologies, gamification, Wordwall.net.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon, yildan-yilga barcha sohalarida xalqaro aloqalarni mustahkamlab, dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega peshqadam davlatlardan bo'lib bormoqda. Shu boisdan ta'kidlash joizki, "O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarida xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Yangi O'zbekistonni qurishda xorijiy tillarni mukammal bilish ertangi kunimiz, raqobatbardoshligimiz garovi bo'lib, xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti keldi. Ushbu tizim barcha ta'lim bosqichlarida bilingvizm (ikki tillilik)ga asoslangan ta'limni ilgari surish bilan birga, barcha zamonaviy til mutaxassislaridan o'z kasbining yetuk bilimdoni bo'lish bilan bir qatorda, sun'iy intellektga asoslangan, onlayn pedagogik texnologiyalar, dasturlar va raqamli platformalardan samarali foydalanish malakasini talab etayotir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo olimlari onlayn platformalarning ta'limga integratsiyasi samaradorligini so'nggi bir necha yillardan buyon turli aspektlarga ko'ra izchil o'rganmoqdalar. Xususan, fransuz olimlaridan, faol tadqiqotchi va professor **Alain Jaillet** fransuz tilida raqamli ta'lim, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta'lim tizimlarining nazariyasi hamda amaliyoti bo'yicha ishlagan. U *texnologiyalar orqali ta'limni integratsiya qilish, masofaviy ta'lim dizayni va pedagogik innovatsiyalar* bo'yicha ilmiy maqolalar yozdi hamda ko'plab tadqiqotchilarni shu sohaga yo'naltirdi. **Shuningdek**, fransuz olimlari jamoasidan **Amélie Duguet, Sophie Morlaix va Lucie Corbinlar** Fransiya universiteti talabalarida **Moodle va Teams kabi onlayn o'quv platformalaridan** foydalanib, ularning platformalar bilan ishlash qobiliyatlari hamda akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan ilmiy tadqiqot olib borganlar [42]. Fransuz tadqiqotchisi **François Mangenot** masofaviy va onlayn ta'lim (*e-learning*) konseptlari, shu jumladan **pedagogik o'zaro ta'sirlar va onlayn pedagogik tizimlar nazariyasi** ustida ilmiy maqolalar yozgan [40]. **Shu bilan birga, tadqiqotchilar Mokhtar Ben Henda va Henri Hudrisier** *e-learning* infratuzilmasini chuqur tahlil qilishga yordam beradigan **fransuz tilidagi onlayn pedagogik resurslar portallari va ularning standartizatsiyasi** haqida ilmiy ish olib borganlar [35]. **Bundan tashqari, mutaxassislar Christophe Col va Fabien Fenouillet** *e-learningni Fransiya oliy ta'limida keng tadbiq etish va undan foydalanish* bo'yicha holat tahlilini amalga oshirdilar. **Shuningdek, Sébastien George va Alain Derycke** – *onlayn ta'lim platformalarining konsepsiyasi va pedagogik foydalanilishi* haqida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Fransuz olimi va professori **Pascal Plantard** **raqamli texnologiyalarning pedagogikadagi qo'llanilishi, yangi pedagogik amaliyotlar va raqamli makonlar antropologiyasi** bo'yicha raqamli ta'limda o'qituvchilarning ushbu texnologiyalar bilan pedagogik tajribasini tahlil qilgan bir qator ishlarga ega hisoblanadi.

Bundan tashqari, Yangi Zelandiyalik pedagog va tadqiqotchi Niki Davis **Aotearoa** ta'limda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan "Digital Technologies and Learning" asarini chop etgan [36].

O'quv dizayni va ta'lim texnologiyalarining tarixiy rivojlanishini tahlil qilgan Robert A. Reiser ta'lim texnologiyalarini faqat texnik vosita emas, balki **pedagogik tizim** sifatida talqin qiladi va ta'limni 3 bosqichga ajratadi:

- audiovizual vositalar davri (1920–1950);
- tizimli yondashuvning shakllanishi davri (1960–1980);
- kompyuter va raqamli texnologiyalar integratsiyasi davri (1990–hozirgacha).

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini ilmiy tahlil etish butun dunyoda, ayniqsa, o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab keng ilmiy ommani o'ziga jalb etdi. Xususan, *o'yin texnologiyalarining nazariy masalalarini* maxsus o'rganish predmeti G. Spenser, G. P. Shedrovskiy, B. G. Ananyev, N. P. Anikeyeva, R. S. Appatova, P. M. Bayev, A. M. Aylamazyan, S. F. Zanko, Yu. S. Tyunnikov, S. M. Tyunnikova, F. Yu. Batasheva, O. A. Artemyeva va M. N. Makeyeva, Sh. B. Ashurova, A. A.

Akishina, M. N. Kuznetsova, D. M. Mallayev va D. I. Gasanov kabi tilshunos va psixologlarning ishlari va ilmiy izlanishlarida o'z aksini topganligi, shuningdek, *Oliy o'quv yurtlarining o'quv va ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'yinlardan foydalanishning psixologik va pedagogik hamda uslubiy asoslarini*, xususan, O. G. Gazman *o'yin nazariyasini*, A. A. Verbitskiy *biznes o'yinini*, P. I. Pidkasiy va J. S. Haydarov *o'rgatuvchi o'yinlarni*, V. A. Traynev *o'yinli modellash* metodlarini va L. T. Ahmedova hamda Ye. A. Lagay *o'yin texnologiyalarini yaratish* masalalarini o'rganishlari hamda nofilologik OTMLar talabalarini chet tilga o'qitish metodikasi va fanlararo aloqadorlik masalalari bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, jumladan, G. N. Irmuxammedova, F. B. Saidova, I. V. Panfyorova, N. X. Kushiyeva, D. M. Isroilova, B. R. Samatova, U. K. Nasirovalarning ishlari ushbu masalalar ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilganligini shu mavzudagi ilmiy tadqiqotlardan ko'rish mumkin.

Sohaga oid ilmiy izlanishlar, ayniqsa, so'nggi yillarda ravnaq topdi. Amerikalik olim Richard E. Mayer *multimedia o'qitish nazariyasini ishlab chiqqan eng muhim dunyo olimlaridan biri* sifatida ikki kanalli qabul qilish: vizual + audial (dual channel), inson xotirasining cheklanganligi (limited capacity) va faol o'zlashtirish zarurati (active processing) prinsiplari asosida quyidagi mashhur tamoyillarni ishlab chiqdi:

➤ **Moslik tamoyili (coherence principle)** – ta'lim materialidan ortiqcha, mavzuga aloqasiz axborotni chiqarib tashlash zarurligini ifodalaydi.

➤ **Yo'naltiruvchanlik tamoyili (signaling principle)** – asosiy ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish orqali o'quvchining e'tiborini muhim jihatlarga yo'naltirishni anglatadi.

➤ **Takrori cheklash tamoyili (redundancy principle)** – bir xil axborotni bir nechta shaklda ortiqcha takrorlash o'rganishni pasaytirishini bildiradi.

➤ **Modallik tamoyili (modality principle)** – axborotni bir vaqtning o'zida turli sezgi kanallari, masalan, vizual va audial usullar orqali berish samaraliroq ekanini anglatadi.

Ta'kidlash lozimki, Mayerning ushbu nazariyasi Wordwall, Quizlet va boshqa onlayn platformalar samaradorligini tushuntirishda muhim manbalardan bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, Wordwall — bu o'qituvchilar va o'rganuvchilar uchun **interaktiv mashg'ulotlar, testlar, topshiriqlar va o'yinlar yaratish** imkonini beradigan zamonaviy raqamli ta'lim platformalaridan biridir. Ushbu onlayn platforma shuningdek, turli bosma materiallar yaratishga mo'ljallangan ta'limiy vosita sifatida 40 dan ziyod tillarda ishlaydigan 30 dan ortiq turdagi faoliyat shablonlarini taklif etuvchi millionlab tayyor resurslar kutubxonasiga ega bo'lib hisoblanadi. Mazkur platforma Buyuk Britaniyada joylashgan *Visual Education Ltd* kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu kompaniya asosan o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim vositalarini yaratishga ixtisoslashgandir. Wordwall platformasi dastlab **2006-yilda** ishga tushirilgan va keyinchalik u bir necha bor yangilanib, ayniqsa, **2016–2018-yillar** oralig'ida to'liq onlayn (bulutli) platforma sifatida modernizatsiya qilingan.

Ta'kidlash joiz, Wordwall.net platformasi bo'yicha dunyo olimlari ko'plab turli ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, indoneziyalik Wahyuni Fitria, Dilla Agustin va Saijunlar Wordwall platformasining o'quvchilarning o'qib tushinishiga ta'siri xususida, S. Nurah Alfares Saudiya Arabistonidagi EFL (Ingliz tili) sinflarda Wordwall platformasi orqali lug'at o'rganish samaradorligi bo'yicha, shuningdek, ukrainalik Yevheniia Kostyk professional so'z boyligini o'rgatishda Wordwall onlayn platformasining imkoniyatlari haqida, gruziyalik tadqiqotchi Mari Makharashvili Wordwall platformasining B2-darajadagi universitet talabalarini talaffuzini yaxshilashga ta'siri xususidagi ilmiy tadqiqotlari bilan soha rivojiga muhim hissa qo'shganlar. Shuningdek, Sebastian Deterding Gamifikatsiya nazariyasining asoschilaridan biri sifatida Wordwall kabi platformalarning ilmiy asosini tushuntirishga oid tadqiqotlari bilan mashhur. O'yin asosida o'qitish (game-based learning) bo'yicha yetakchi olim Karl M. Kapp ham o'z ilmiy ishlari interaktiv platformalarning ta'limiy samaradorligini isbotlagan bo'lsa, tadqiqotchi Zichermann Gabe gamifikatsiya orqali motivatsiyani oshirishni tahlil etgan.

So'nggi yillarda o'zbek olimlari ham ushbu sohada, xususan, xorijiy tillarni o'rgatishda interfaol metodlar va onlayn texnologiyalar tadqiqida yetakchilik qilib, ko'plab ilmiy ishlar olib bormoqdalar. Jumladan, S. Sayidaliev, F. M. Rashidova, B. G. Kulmatov hamda N. H.

Kushievalarning soha rivojiga qo'shgan hissasi alohida e'tirofga sazovvor. Bundan tashqari, F. P. Davronovanning *zamonaviy metodlar asosida xorijiy tillarni o'rgatishning metodik xususiyatlari*, tadqiqotchi Z. Z. Qulmatovning *pedagogik eksperimentlarda qo'llaniladigan elektron dasturiy ta'minotlar tahlili* borasidagi, M. A. Nishonovanning *mustaqil ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyati* ochib berishga oid, G. O. Ubaydullayevaning *zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni inklyuziv ta'lim sharoitida mustaqil ta'limga qo'llash* masalalariga doir, A.M. **Pulatovning** *imitatsion kompyuterli ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik asoslari* borasidagi hamda K. M. Astanaqulovning *ijtimoiy tarmoqdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llariga oid izlanishlari* ham bu borada muhim qadamlardan sanaladi.

Shuningdek, ta'lim jarayoniga, xususan, fransuz tilini chet tili sifatida o'rgatishda interfaol metodlar bilan birga, AKT, Coggle.it, Framapade.com, Wordart.com, Kahoot.com, Learningapps.com va Wordwall.net singari onlayn platformalar va o'yinlarning samaradorligi xususida olim G. S. Hojiyevaning olib borayotgan tadqiqotlari ham muhim izlanishlardan bo'lib hisoblanadi [5-22].

Ta'kidlash lozimki, Wordwall oddiy dastur emas – u bir nechta zamonaviy pedagogik nazariyalarga asoslanadi. Jumladan:

1. Gamifikatsiya – ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish bo'lib, u til o'rganuvchilar motivatsiyasini oshiradi, ularning faol ishtirokini kuchaytiradi [3]. Shunga ko'ra, Wordwall aynan o'yin orqali o'qitish modeliga asoslanadi, deyish mumkin.

2. Multimedia o'qitish nazariyasi – bu *matn + rasm + audio* orqali bilimni samaraliroq o'zlashtirish hisoblanib, bunda Wordwall interaktiv vizual va audio elementlardan foydalanadi.

3. TPACK modeli (*Modèle TPACK / Connaissances Technologiques, Pédagogiques et des Contenus*). Mazkur modelda o'qituvchi texnologiyani pedagogik maqsad bilan uyg'unlashtiradi. TPACK modeli — bu zamonaviy o'qituvchining nimani o'qitishi (mazmun), qanday o'qitishi (pedagogika) va qanday vosita bilan o'qitishi (texnologiya)ni uyg'unlashuvini anglatadi. Wordwall esa bu modelni amaliyotda qo'llash uchun juda qulay vosita hisoblangani bois, uni "aynan texnologik-pedagogik integratsiya vositasi" deyish o'rinlidir.


4. Konstruktivizm va faol o'rganish – talaba interaktiv o'yin o'ynash, savollarga javob berish va xatolar orqali o'rganish singari mashg'ulotlar yordamida tilni o'zlashtirishi, bilim olishi mumkin bo'ladi.

5. Feedback nazariyasi (*Retour*) – bunda tezkor natija (feedback) o'rganishni kuchaytiradi [4] chunki Wordwall natijani darhol ko'rsatadi.

6. Differensial ta'lim – bu har bir o'rganuvchiga moslashgan ta'lim bo'lib, ushbu platforma mashg'ulotlarni murakkablik darajasiga ko'ra moslashtirish imkonini beradi.

7. Flow nazariyasi (*Théorie du FLOW/ Théorie de l'expérience optimale*) – bu o'rganuvchi yoki foydalanuvchining faoliyatga to'liq sho'ng'ib ketishi, vaqtni sezmay qolishi va yuqori darajada motivatsiya bilan ishlash holatini anglatadi. Bu tushuncha Mihaly Csikszentmihalyi tomonidan ishlab chiqilgan, ya'ni, talaba qiziqarli jarayonga "sho'ng'ib ketishi" [2]ni o'yinli format orqali Wordwall yuzaga keltiradi: til o'rganuvchi vazifaga to'liq e'tibor qaratadi, faoliyatdan zavq oladi, o'z qobiliyati va topshiriq murakkabligi o'rtasida muvozanat bo'ladi va tashqi chalg'ituvchi omillarni sezmaydi.

Natijalar. Wordwallda mashg'ulot yaratish uchun dastlab, <https://wordwall.net> orqali platformaning bosh sahifasi (1-rasm)ga o'tish talab etiladi, shundan so'ng tizimga kirish maqsadida ro'yxatdan o'tiladi. Buning uchun foydalanuvchi alohida login-parol bilan hisob ochishi yoki Google va Microsoft singari tizimlarda mavjud akkauntlari orqali ro'yxatdan o'tishi mumkin (2-rasm).



Mazkur oynaning yuqori o'ng qismida "Accueil" (Qabul), "Fonctionnalités" (Xususiyatlar), "Formules et tarifs" (Narxlar rejasi), "Communauté" (Birlashma), "Se connecter" (Kirish), "S'inscrire" (Ro'yxatdan o'tish), "Langue" (Til) funksiyalari amal qiladi.

Shu o'rinda Wordwall platformasining *asosiy imkoniyatlari ya'ni, xususiyatlariga* quyidagilarni kiritish mumkin:

Interaktiv va chop etiladigan materiallar (*Interactives et imprimables*)

Ushbu funksiya shuni ko'rsatadiki, Wordwall yordamida ham interaktiv, ham chop etiladigan materiallar yaratish mumkin.

Yana bir o'ziga xos jihati, interaktiv materiallar veb-interfeysga ega bo'lgan istalgan qurilmada, masalan, kompyuter, planshet, telefon yoki interaktiv doskada ishlaydi. Ularni talabalar mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida navbatma-navbat auditoriyada bajarishlari mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, chop etiladigan materiallarni oddiygina chop etish yoki PDF fayl ko'rinishida yuklab olish mumkin. Ular interaktiv materiallarga qo'shimcha vosita sifatida yoki mustaqil o'quv topshiriqlari sifatida qo'llash imkonini beradi.

2. Shablon (namuna)lar yordamida yaratish (*Créez à l'aide de modèles*)

Aytib o'tish lozimki, Wordwall mashg'ulotlari shablonlar tizimi asosida yaratiladi. Mazkur namunalar orasida ko'pchilikka tanish klassik turlar ham, (masalan: viktorina va krossvord), shuningdek, yangi interaktiv mashg'ulotlardan iborat auditoriyani boshqarish vositalari ham mavjud.

Yangi mashg'ulot yaratish uchun avval shablonni tanlash, so'ngra o'z kontentini kiritish lozim. Bu juda oddiy bo'lib, bir necha daqiqa ichida to'liq interaktiv mashg'ulot yaratish imkonini beradi. Ushbu xususiyat shablonlar ro'yxati bilan bog'liq savollarga javob beradi.

3. Shunday nomlarga ega bo'lgan figuralar bilan ishlash. (*Basculement du modèle*)

Ushbu funksiya xuddi shu tarzda til o'rganuvchilarning o'z resurslarini Viktorina yoki So'z qidirish o'yiniga aylantirishlari mumkin bo'lgan yana ko'plab boshqa imkoniyatlarga egaligi bilan

xarakterlanadi. Bunda mashg'ulot shablonini qanday o'zgartirish, nechtagacha o'zgartirishga oid savollarga javob topish mumkin.

4. Har qanday mashg'ulotni tahrirlash (*Modifier toute activité*)

Bunday tahrirlash nafaqat tayyor mashg'ulotlardan foydalanish, balki, biror ma'qul ishlanmani u to'liq mos kelmagan vaziyatda dars mavzusi va o'qitish uslubiga moslab osonlik bilan o'zgartirish imkoniyatini taqdim etadi. Shu asnoda tayyor mashg'ulotni tahrirlash bilan bog'liq savollarga javob topish mumkin bo'ladi.

5. Vizual uslublar va parametrlar (*Styles et options visuels*)

Wordwallning ushbu funksiyasi turli vizual uslublarda taqdim etilishi mumkin bo'lgan interaktiv materiallarni alohida vizualizatsiyaga asoslanib, turli grafikalar, shriftlar va tovushlar orqali ko'rinishni o'zgartirish imkoniga ega. Bunda shuningdek, taymer (vaqt o'lchagich) o'rnatish yoki o'yin jarayonini o'zgartirish kabi qo'shimcha imkoniyatlarni ko'rish mumkindir. Bundan tashqari, chop etiladigan materiallar uchun shriftni o'zgartirish yoki bir sahifadan bir nechta nusxa chiqarish funksiyalari mavjud. Qisqacha aytganda, mazkur **vizual uslublar va parametrlar funksiyasi mashg'ulot parametrlari va o'yin vaqtini o'zgartirish bilan bog'liq savollarga javob berishi bilan xarakterlanadi.**

6. Talabalar (yoki o'quvchilar)ga topshiriqlar berish (*Tâches de l'étudiant*)

Ta'kidlash lozimki, ushbu funksiya orqali Wordwall mashg'ulotlarini talabalarga bajarish uchun topshiriq sifatida berish mumkin. O'qituvchi topshiriq berganda, talabalar bevosita shu mashg'ulotga yo'naltiriladi va boshqa sahifalarga chalg'amaydilar. Bu funktsiyani dars vaqtida (talabalar o'z qurilmalariga ega bo'lsa) yoki uy vazifasi sifatida ishlatish mumkin. Bunda har bir talabaning natijalari qayd etiladi va o'qituvchiga taqdim etiladi. Shuningdek, talabalarga **topshiriqlar berish orqali ularni** qanday yaratish, natijalarni qayerdan ko'rish bilan bog'liq savollarga javob topish imkoniyati paydo bo'ladi.

7. O'qituvchilar bilan bo'lishish (*Partage avec les enseignants*)

Ushbu funksiya orqali yaratilgan har qanday mashg'ulotni ommaviy qilish mumkin, shu bois, mashg'ulot sahifasi havolasini foydalanuvchi elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa vositalar orqali ulashish imkoniyatiga ega. Shuningdek, boshqa o'qituvchilar ham uni qidiruv orqali topib, mashg'ulotdan foydalanishlari va rivojlantirishlari mumkinligini alohida e'tirof etish lozimdir. Va aksincha, mashg'ulotni yopiq (xususiy) saqlash ham mumkin bo'lib, bunda faqat uning yaratuvchisi unga kira oladi va foydalana oladi. Ushbu bo'lim havolalar bilan ishlashga oid savollarga javob beradi.

8. Veb-saytga joylashtirish (*Intégration sur un site Web*)

Wordwall mashg'ulotlarini HTML kod orqali boshqa veb-saytga joylashtirish mumkin. Bu YouTube yoki Vimeo videolarini joylashtirish funksiyasiga o'xshaydi, ya'ni har bir shablon yaratuvchisi o'z saytida to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan mashg'ulotga ega bo'ladi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, bu har bir platforma foydalanuvchisi uchun o'z blogini yoki maktabining virtual ta'lim muhitini boyitishning ajoyib usuli hisoblanadi. Bunda mashg'ulotlarni joylashtirish kodi va natijalarni kuzatish imkoniyatlari haqida savollarga ham javob olish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, "Formules et tarifs" (Narxlar rejasi) bo'limida *Bazaviy*, *Standart* va *Pro* ta'riflari imkoniyatlari, xususan, *Bazaviy ta'rif*da bepul 5 tagacha mashg'ulot yaratish, 12 tagacha shablonlardan unumli foydalanish hamda boshqalar bilan bo'lisha olish imkoniyatlari bayon etilgan. "Communauté" (Birlashma) funksiyasi unga a'zo bo'lish orqali avvaldan yaratilgan minglab tayyor ishlanmalarni ko'rish imkoniyatini taqdim etadi. "Se connecter" orqali platformaga kirish hamda "S'inscrire" yordamida ro'yxatdan o'tish va "Langue" funksiyasidan 50ga yaqin mashg'ulot yaratish tillaridan birini tanlash mumkin bo'ladi.


3-rasm

Langue


Català | Cebuano | Čeština | Dansk | Deutsch | Eesti keel | English | Español | Français | Hrvatski | Indonesia | Italiano | Latvian | Lietuvių | Magyar | Melayu | Nederlands | Norsk | O'zbek | Polski | Português | Română | Slovenčina | Slovenščina | Srpski | Suomi | Svenska | Tagalog | Türkçe | Vietnamese | ελληνικά | български | Қазақ | Русский | Српски | Українська | עברית | العربية | हिंदी | ગુજરાતી | தமிழ் | 한국어 | 日本語 | 简体字 | 繁體字

126

Tadqiqot doirasida nomutaxassislik yo'nalishi talabalarida fransuz tilidagi san'atga oid terminlar (Les termes de l'art) leksikasini rivojlantirish maqsadida Wordwall.net platformasi yordamida mashg'ulot yaratamiz. Buning uchun "Créer une activité" buyrug'i orqali kirib, mashg'ulot uchun shablon tanlanadi (4-rasm):



Shundan so'ng, mavzu sarlavhasi (*Titre de l'activité*), san'atga oid atamalar (*Mot clé*, ularni so'z, tovush yoki rasm asosida berish mumkin) hamda ularni ifodalovchi rasmlar (*Définition*, internet tarmog'idan tanlanadi) biriktirilib, tugatish (*Terminer*) tugmasi bosiladi (5-rasm):



Mashg'ulot jarayonida "Apparier" (Javoblarni ko'rsatish, 6,7-rasmlar), "Trouver la correspondance" (Mosini topish, 8-rasm), "Quiz" (Viktorina/test, 9-rasm), "Anagramme" (Anagramma (harflarni to'g'ri joylashtirib so'z tuzish), 10,11-rasmlar), "Fiches de révision" (Kartochkalar asosida takrorlash, 12,13-rasmlar), "Cartes aléatoires" (Tasodifiy kartalarni nomlash, 14-rasm), "Des paires" (Juftini topish, 15,16-rasmlar), "Ouvrir la boîte" (Qutini ochish, 17,18-rasmlar), "Roue aléatoire" (Tasodifiy g'ildirak, 19,20-rasmlar) singari o'yin modellar(4-rasm)ini xohishga ko'ra, mavzuga va til o'rganuvchining leksik salohiyatini inobatga olgan holda almashtirib qo'llash imkoniyati mavjud.

0:07

Le cinéma
La peinture
Le théâtre
Une chanteuse
Un tisserant

La musique
Le cirque
La broderie
Un acteur
Un sculpteur

Présenter les réponses
Partager

Les termes de l'art

Changer de modèle

- Apparier
- Trouver la correspondance
- Quiz
- Anagramme
- Fiches de révision

Afficher tout

6-rasm

0:57 ✓ 10

Le cirque ✓
Le théâtre ✓
Un tisserant ✓
La broderie ✓
La musique ✓

Le cinéma ✓
Un sculpteur ✓
Un acteur ✓
Une chanteuse ✓
La peinture ✓

Partager

Les termes de l'art

Changer de modèle

- Apparier
- Trouver la correspondance
- Quiz
- Anagramme
- Fiches de révision

Afficher tout

7-rasm

0:11 ✓ 2

Un tisserant ✓

La broderie ✓

La musique

Le cinéma

2 / 10
Partager

Les termes de l'art

Changer de modèle

- Apparier
- Trouver la correspondance
- Quiz
- Anagramme
- Fiches de révision

Afficher tout

8-rasm

128

0:08 Correct! ♥♥♥✓ 1



Un acteur La peinture Un tisserant Un sculpteur La musique

Le cinéma La broderie Une chanteuse Le cirque Le théâtre

Les termes de l'art Partager

Changer de modèle

- Apparié
- Trouver la correspondance
- Quiz
- Anagramme
- Fiches de révision
- Afficher tout

9-rasm

0:13 ✓ 0



n U r a e c u t

Les termes de l'art Partager

5 / 10

10-rasm

0:23 1 / 10 ✓ 1



Retourner

Les termes de l'art Partager

Changer de modèle

- Apparié
- Trouver la correspondance
- Quiz
- Anagramme
- Fiches de révision
- Afficher tout

11-rasm



12-rasm




13-rasm




14-rasm


130




15-rasm




16-rasm



17-rasm



18-rasm



19-rasm

Shu asnoda tayyor bo'lgan mashg'ulotni boshqalar bilan bo'lishish mumkin: (<https://wordwall.net/fr/resource/15980814/les-termes-de-lart>) 21-rasm

Yuqoridagi funksiyalar asosida Wordwall quyidagi *didaktik afzalliklarni* o'zida aks ettiradi, deyish mumkin:

- ✓ Talabalar motivatsiyasini oshirish – gamifikatsiya orqali o'rganuvchilarda qiziqish va raqobat uyg'otadi.
- ✓ Faol ishtirokni kuchaytirish – talabalarni passiv emas, balki **aktiv o'rganish subyekti**ga aylantiradi.
- ✓ Mustaqil o'rganishni rivojlantirish – talabalar topshiriqlarni mustaqil bajarib, natijalarni ko'ra oladilar.
- ✓ Individual yondashuvni qo'llab-quvvatlash – har bir talaba o'z tezligida, imkoniyati darajasida ishlaydi.
- ✓ Vizual va multimodal ta'limni ta'minlash – rasmlar, tovushlar, interaktiv elementlar orqali o'rganish kuchayadi.

Xulosa. Shu nuqtai-nazarlardan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, *Wordwall chet tilini o'rganish bo'yicha juda foydali platformadir*. Ilmiy tadqiqotlar Wordwall ayniqsa **FLE (Français Langue Étrangère)**ni o'rganishda juda samarali xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Jumladan:

- so'z boyligini oshirish orqali leksik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- vizual namoyish + o'yin orqali so'zlarni eslab qolish (xotira)ni kuchaytirish;
- audio va yozma mashqlar vositasida talaffuz va imloni rivojlantirish;

mashg'ulotlarni o'yin shaklida tashkil etish bilan til o'rganuvchilarni faol jalb etish orqali stressni kamaytirish;

o'qish (lire), yozish (écrire) tinglash (écouter) va gapirish (parler)ni rag'batlantirish asnosida til kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilish.

Wordwall.netning barcha imkoniyatlarini umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, ushbu platforma talabalarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, ularni faollashtirish, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish va leksik-grammatik bilimlarini mustahkamlash orqali til o'rganuvchilarning kognitiv rivojlanishlariga ijobiy ta'sir qiluvchi o'yin vositasida o'rganishga asoslangan, zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan uyg'un o'qitish samaradorligini oshiruvchi vosita – interaktiv onlayn ta'lim platformasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Astanaqulov K. M. Ijtimoiy tarmoqdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari, Научный вестник НамГУ-НамДУ ilmiy axborotnomasi 2024-yil 2-son. www.Journal.namdu.uz ISSN: 2181-1458.
2. Csikszentmihalyi, Mihaly. (1990). Flow: The Psychology of Optimal Experience. *Journal of Leisure Research*, 24(1), pp. 93–94.
3. Deterding Sebastian (2011) /The Gamification of Learning and Instruction.
4. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. *Review of Educational Research*, 77(1), 81–112.
5. Hojiyeva G.S Advantages of Using Interactive Methods in Teaching the Subject "Season" (Saisons) in Primary Classes. *American Journal of Open University Education* ISSN 2997-3899 Vol. 2, No. 3, Mar 2025, – P. 136-142. Available online at: <https://scientificbulletin.com/index.php/AJOUPE>
6. Hojiyeva G.S Boshlang'ich sinflarda xorijiy tilni o'qitishning ahamiyati. Chet tillarni o'itishning dolzarb amasalalari. Respublika ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent, "Navro'z", 2016. – B.391-393.
7. Hojiyeva G.S Chet tili amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. PEDAGOGIK MAHORAT. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, № 1. – Buxoro, 2017. – B.218-228.
8. Hojiyeva G.S Chet tillarini o'rganishda zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi (fransuz tilidagi san'at terminlari misolida). "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnal №11(28). ISSN 2181-3787 E-ISSN 2181-3795 – Buxoro, 2025. – B. 368-377.
9. Hojiyeva G.S Chet tillarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning samaradorligi. "XXI ASR — INTELLEKTUAL AVLOD ASRI" hududiy ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami. – Buxoro, 2016. – B. 98-100.
10. Hojiyeva G.S Chet tillarni o'rganishda interfaol o'yinlarning roli. Xorijiy tillarni maxsus maqsadlarda o'qitishning muammo va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Buxoro, "Durdona", 2017 yil 14-15 aprel. – B.77-80.
11. Hojiyeva G.S Effectiveness of online technologies in developing foreign language writing skills of non-specialist students (on the example of art terms). *ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING*. FEBRUARY, 2026-2. ISSN 2181-9750 – B. 35-48.
12. Hojiyeva G.S Fransuz tilidagi san'atga oid terminlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi tahlili. PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Buxoro, №3 (11) 2024. – B. 199-203.
13. Hojiyeva G.S L'utilisation des methodes interactives dans la production orale. Buxoro viloyatining turistik va investitsion salohiyati. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to'plami. – Buxoro, "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2018. – B.84-89.
14. Hojiyeva G.S Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining xorijiy tillardagi kreativ kompetentligini oshirish texnologiyalari ("Règles de la politesse française" mavzusi misolida). "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. ISSN 2181-3787 E-ISSN 2181-3795 №5(22) 2025. Buxoro, 08.05.2025. – B. 97-105.
15. Hojiyeva G.S Nofilologik yo'nalish talabalariga chet tili (fransuz tili)ni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli (*Le sport et la vie saine* mavzusi doirasida). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro, 2023-yil, 3-son, noyabr. – B. 12-24.